



FARG'ONA VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

FARG'ONA
VILOYATINING
DEMOGRAFIK HOLATI

2023- *yil*
yanvar-iyun




FARG'ONA VILOYATINING DOIMIY AHOLISI*2023- yil 1- iyul holatiga, dastlabki ma'lumotlar*

Farg'ona viloyatida 2023- yil 1- iyul holatiga doimiy aholi soni 4014,8 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 83,7 ming kishiga yoki 2,1 % ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni 2 285,4 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 56,9 %), qishloq aholisi soni 1 729,4 ming kishi (43,1 %) ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni**4 014,8** ming
kishi**Tabiiy o'sish****(+) 83,7** ming
kishi**Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi****Shahar****Qishloq****56,9%****43,1%**


Farg'ona viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2023- yil yanvar-iyun



Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni


2023- yil 1- iyul holatiga



2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisi sonining 30,0 %i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 57,0 %i mehnatga layoqatli yoshdagilar va 13,0 %i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Yosh guruhlari va jinsi bo'yicha aholi tarkibi


2023- yil 1- yanvar holatiga



2023- yil 1- yanvar holatiga Farg'ona viloyatining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo'yicha (65 yoshgacha bo'lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo'lgan bolalar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni 236,7 ming kishini tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelib, 76,3 ming kishini tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo'lgan qizlar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni 220,6 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelgan, ya'ni 83,1 ming kishini tashkil etgan.


Tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi

2023- yil 1- yanvar holatiga



2023- yilning 1- yanvar holatiga Farg'ona viloyati aholisining kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 75,4 yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun 73,4 yoshga, ayollar uchun esa 77,3 yoshga teng. Shahar joylar 76,1 yosh qishloq joylar uchun kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 74,4 yoshni tashkil etgan.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi
2023- yil 1- iyul holatiga




Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

2023- yil 1- iyul holatiga, ming kishi

	2022- yil	2023- yil	O'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	3 931,1	4 014,8	102,1
shaharlar:			
Farg'ona	302,3	318,4	105,3
Qo'qon	261,9	306,4	117,0
Quvasoy	97,8	100,0	102,2
Marg'ilon	244,4	248,8	101,8
tumanlar:			
Oltiariq	221,1	225,8	102,2
Qo'shtepa	200,7	206,0	102,7
Bag'dod	225,4	230,1	102,1
Buvayda	238,4	244,1	102,4
Beshariq	235,8	240,0	101,8
Quva	268,0	273,0	101,9
Uchko'prik	239,8	238,7	99,5
Rishton	210,0	214,3	102,1
So'x	81,0	82,6	101,9
Toshloq	211,8	216,4	102,2
O'zbekiston	248,2	232,6	93,7
Farg'ona	223,3	218,9	98,0
Dang'ara	182,6	174,7	95,7
Furqat	122,8	125,6	102,2
Yozyovon	115,7	118,3	102,2

Farg'ona viloyati bo'yicha aholi zichligi

2023- yil 1- iyul holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




Farg'ona viloyatida 2023- yil 1- iyul holatiga 1 kvadrat kilometrga o'rtacha 594,0 kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 12,0 kishiga ortgan (2022- yilda 1 kv.km.ga 581,6 kishi).

Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichliginig eng yuqori ko'rsatkichi Marg'ilon shahrida 6068,8 kishi, Farg'ona shahrida 2139,9 kishi, Uchko'prik tumanida 1024,4 kishi, Qo'qon shahrida 1001,5 kishi, Toshloq tumanida 890,3 kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Yozyovon tumani 290,7 kishi, Beshariq tumanida 310,1 kishi, Oltiariq tumanida 357,9 kishi, So'x tumanida 373,6 kishi, Farg'ona tumanida 388,1 kishini tashkil etgan.

Farg'ona viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi

2023- yil 1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi





Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti
2023- yil yanvar-iyun, kishi

Farg‘ona sh.	4 025	25,7%
Qo‘qon sh.	3 910	25,8 %
Uchko‘prik	3 181	27,0 %
Buvayda	3 089	25,7 %
Marg‘ilon sh.	3 076	25,0%
Quva	2 989	22,2 %
Bag‘dod	2 927	25,8 %
Qo‘shtepa	2 891	28,5%
Oltiariq	2 705	24,3 %
Farg‘ona	2 611	24,2 %
Rishton	2 511	23,7 %
Toshloq	2 509	23,5%
O‘zbekiston	2 490	21,7 %
Dang‘ara	2 314	26,9 %
Beshariq	2 237	18,9%
Furqat	1 475	23,8%
Yozyovon	1 320	22,6%
Quvasoy sh.	1 222	24,8%
So‘x	636	15,6 %


2023- yil yanvar-iyun oylarida 48 118 ta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti 24,3 promilleni tashkil etdi hamda bu ko‘rsatkich 2022- yilga nisbatan 1,1 promillega oshganligi kuzatildi (2022- yilda yanvar-iyun oylarida 23,2 promilleni tashkil etgan).

VAFOT ETGANLAR



Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti


2023- yil yanvar-iyun, kishi




2023- yilning yanvar-iyun oylarida 8 387 ta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti 4,2 promilleni tashkil etgan hamda 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 0,4 promillega kamaygani kuzatildi (2022- yilda 4,6 promilleni tashkil etgan).

O'limning asosiy sabablar bo'yicha taqsimlanishi


2023- yil yanvar-iyun, kishi



2023- yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan o'lim holatining 59,9 %i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 7,3 %i – o'simtalardan, 5,4 %i – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 5,3 %i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,4 %i – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 0,7 %i – yuqumli va parazitar kasalliklardan, 16,9 %i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR


**Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti
2023- yil yanvar-iyun, birlik**



2023- yilning yanvar-iyun oylarida 10 193 ta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti 5,1 promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan 0,5 promillega kamaygani kuzatildi (2022- yilning yanvar-iyuln oylarida 5,6 promille bo'lgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR



Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-iyun, birlik

Farg’ona sh.	372	2,4 %
Qo‘qon sh.	314	2,1 %
Rishton t.	206	1,9 %
Bag‘dod t.	192	1,7 %
Marg‘ilon sh.	191	1,6 %
Farg’ona t.	178	1,6 %
Quva t.	167	1,2 %
Uchko‘prik t.	162	1,4 %
O‘zbekiston t.	161	1,4 %
Buvayda t.	159	1,3 %
Beshariq t.	156	1,3 %
Oltiariq t.	140	1,3 %
Qo‘shtepa t.	131	1,3 %
Dang‘ara t.	126	1,5 %
Toshloq t.	105	1,0 %
Quvasoy sh.	103	2,1 %
Furqat t.	97	1,6 %
Yozyovon t.	86	1,5 %
So‘x t.	61	1,6 %

2023- yil yanvar-iyun oylarida 3 107 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti 1,6 promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan 0,3 promillega oshganligi kuzatildi (2022- yil yanvar-iyun oylarida 1,3 promille bo‘lgan).

AHOLI MIGRATSİYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)


2023- yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni 4 406 kishini tashkil etdi. Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami 5 620 kishini tashkil etib, migratsiya saldosи minus 1 214 kishini tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni

2023- yil yanvar-iyun, kishi


	Ko'chib kelganlar Jami	Ko'chib ketganlar Jami
Farg'ona viloyati	4 406	5 620
shaharlar:		
Farg'ona sh.	2 192	1 452
Qo'qon sh.	63	511
Quvasoy sh.	225	168
Marg'ilon sh.	13	374
tumanlar:		
Oltiariq t.	84	176
Qo'shtepa t.	211	177
Bag'dod t.	7	172
Buvayda t.	76	174
Beshariq t.	127	305
Quva t.	109	279
Uchko'prik t.	67	152
Rishton t.	105	206
So'x t.	69	40
Toshloq t.	158	192
O'zbekiston t.	186	250
Farg'ona t.	232	557
Dang'ara t.	216	148
Furqat t.	189	182
Yozyovon t.	77	105

JAMI KO'CHIB KELGANLAR

Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti
2023- yil yanvar-iyun, kishi


2023- yilning yanvar-iyun oylarida 4406 ta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti 2,2 promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan 0,2 promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-iyun oylarida 2,4 promille bo'lган).

JAMI KO'CHIB KETGANLAR

Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti
2023- yil yanvar-iyun kishi


2023- yilning yanvar-iyun oylarida 5620 ta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti 2,8 promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan 0,3 promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-iyun oylarida 3,1 promille bo'lgan).

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shilib, o'lganlar va muayan hududdan ko'chib ketganlar soni ayrıldi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalikklar, patologik holatlар va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlari organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.



Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishslash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi

Tel: 73 241-97-74